

**TARJIMA ASARLAR – MADANIYATLAR ARO KO‘PRIK
 (“GULISTON” JURNALI MATERIALLARI ASOSIDA)**

Malika Ne‘mat qizi DONAYEVA

magistrant

Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va

adabiyoti universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

malikadonayeva1@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada “Guliston” jurnali va unda chop etilgan tarjima asarlar haqida fikr yuritiladi. Ushbu jurnalda qaynoq she’rlar, turli mavzulardagi hikoyalar, tanqidiy maqolalar hamda “Jahonnoma”, “Adabiyot” ruknlarida tarjima asarlar muntazam berib borilganligi, G‘.G‘ulom tarjimasidagi Longston Hyuzning “Qora” hikoyasi, Usmon Nosir tarjima qilgan A.S. Pushkinning “Bog‘chasaroy fontani” she’riy dostoni, Amin Umariy tarjima qilgan Lermontovning “Yelkan” nomli asarlari tahlilga tortilgan. Tarjimon va tarjima asarlar mualliflarining adabiy qarashlari hamda tarjima asarlarning ilmiy ahamiyati hamda bugungi adabiyotshunoslikda tutgan o‘rni haqida xulosaviy fikrlar keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: tarjima asarlar, davr, adabiyot, san‘at, jurnal.

**ПЕРЕВОДНЫЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ – МОСТ МЕЖДУ КУЛЬТУРАМИ
(НА ОСНОВЕ МАТЕРИАЛОВ ЖУРНАЛА «ГУЛИСТАН»)**

Малика Неймат кизи ДОНАЕВА

магистрант

Университет узбекского языка и

литературы имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан

malikadonayeva1@gmail.com

Аннотация

В статье рассматривается журнал «Гулистан» и опубликованные в нём переводные произведения. В данном журнале регулярно размещались яркие стихотворения, рассказы на различные темы, критические статьи, а также переводные произведения в рубриках «Жахоннома» и «Адабиёт». В статье анализируются некоторые из переводных произведений журнала, такие как рассказ Лэнгстона Хьюза «Чёрный» в переводе Г. Гулома, поэма А. С. Пушкина «Бахчисарайский фонтан» в переводе Усмана Носира и стихотворение М. Лермонтова «Парус» в переводе Амина Умари. Приводятся выводы о литературных взглядах переводчиков и авторов переводимых произведений, а также о научной значимости переводов и их месте в современной литературоведении.

Ключевые слова: переводные произведения, эпоха, литература, искусство, журнал.

Insoniyat yaralibdiki, ilm olishga, ma'naviy dunyosini boyitishga harakat qilib yashaydi. Bizning ma'naviyatimizni boyitishda gazeta, jurnal, umuman bosma ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyos. Bugun biz kundalik nashrlarsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Gazeta, jurnal – hayotimizning aksi, tarix ifodasidir. O'lkamizda dastlabki o'zbek tilidagi gazetalar 1905-yildan chiqa boshlagan. 1927-yilda “O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870–1927)” tadqiqotini chop ettirgan Ziyo Saidning aniqlashicha, o'tgan oraliq davrda 45 gazeta, 36 jurnal dunyo yuzini ko'rgan. Ushbu ma'lumotlarning o'ziyoq bu davrda milliy matbuotning nechog'lik faollashganini ko'rsatadi [1;11].

Respublikamiz kutubxonalarining “Nodir nashrlar” fondida saqlanayotgan 1925-yilning noyabr oyidan chiqa boshlagan (hozirgi kunda “Guliston”) “Yer yuzi” jurnali ham ma'naviy boyliklarimizdan biri hisoblanadi. O'zbek tilidagi dastlabki ommaviy ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy va rasmlı – bezaklı nashrlardan biri bo'lgan, “Guliston” jurnali o'z atrofiga davrning taniqli ijodkorlari va olimlarini birlashtirgan edi. Jurnalning tashkil topishi haqida 20 - asr boshidagi o'zbek milliy matbuoti tarixining ilk tadqiqotchilaridan biri Ziyo Said o'zining, “O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar” risolasida quyidagicha ma'lumot beradi: “Yer yuzi”suratlı jurnal. O'zbekistonda kitobxonlik va gazetxonlikka havas avvalgisidan ko'ra inqilob boshlaridan keyin yana ortdi. 1925-yilning oxiri va 26-yilning boshlarida bu havas qalbga quyilg'ondek ishq soldi. Kundalik gazetalar va qalin jurnallardan tashqari dunyo voqealarini ilmiy, siyosiy, ijtimoiy va jiddiy hodisalarni ko'zga gavdalantirib beruvchi ruslarning, “Oganyok”idek populyar (umumiy va yengil) jurnalga ehtiyoj tug'ilgonlig'i sezildi. “Qizil O'zbekiston” gazeta idorasi bu ehtiyojni qoplashni o'ylab, “Yer yuzi”ni chiqarmoqqa qaror qildi” [2;56–57].

“Guliston” jurnali 1925-yildan 1936-yilgacha “Yer yuzi” nomi bilan faoliyat yuritgan. Jurnal dastlab har 15 kunda bir marta chiqqan, keyinchalik iqtisodiy muammolar sabab bir oyda bir marta nashr etilgan. Jurnalda Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Shokir Sulaymon, Botu, Otajon Hoshim kabi ijodkorlarning asarlari muntazam nashr etib borilgan. Jurnalda nafaqat

o‘zbek yozuvchi va shoirlarining ijodlaridan namunalar, balki jahon xalqlari adabiyotidan qilingan tarjimalar ham muntazam berib borilgan.

“Guliston” jurnalida qaynoq she’rlar, turli mavzulardagi hikoyalar, tanqidiy maqolalar hamda “Jahonnoma”, “Adabiyot” ruknlarida esa tarjima asarlar ham muntazam berib borilgan. Qardosh xalqlar va chet el adabiyotidan namunalar keltirilgan. G‘afur G‘ulom tarjimasida Longston Hyuzning “Qora” [3;30–31] hikoyasi Amin Umariy tomonidan tarjima qilingan Lermontovning “Yelkan” [4;32] she’ri, Usmon Nosir tomonidan tarjima qilingan A.S. Pushkinning “Bog‘chasaroy fontani” [5;18] she’riy dostoni va Karim Ahmadiy tarjimasidagi M.Gorkiyning, “Bolalar” [6;22–23] nomli hikoyasi, Davron tarjimasidagi “Armug‘on” she’ri [7;2], Uyg‘un tarjimasidagi qozoq shoiri Baban Elkiyevning “Suluvning so‘zi” she’ri [8;14], Usmon Nosir tarjimasidagi M.YU. Lermontovning “Iblis” hikoyasi [9;27–28], Maqsud Shayxzoda tarjimasidagi Taras Shevchenkoning “Kavkaz” she’ri [10;5], Mirtemir tarjimasidagi Demyan Bednining “Qor uchqunlari” she’ri [11;39], Hamid Olimjon tarjimasidagi M.YU. Lermontovning “Bulutlar” she’ri [12;22] nomli asarlari berilgan.

Xorijiy adabiyot namunalarini ona tilimizga tarjima qilishda Hamid Olimjon, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Maqsud Shayxzoda, G‘afur G‘ulom, Oybek, Amin Umariy, Uyg‘un kabi ijodkorlarning hissasi beqiyos. Ularning asarlarida turli xarakterdagi qahramonlarning taqdiri, ular yashayotgan davrdagi ziddiyatlar, bundan tashqari yozuvchining ichki kechinmalari haqida so‘z yuritilgan. Bu albatta, asarni mutolaa qilgan o‘quvchini befarq qoldirmaydi.

Longston Hyuz haqida aksariyat adabiyotchilarimiz juda yaxshi bilishadi. Longston Hyuz – taniqli afroamerikalik shoir, yozuvchi, publitsist va jamoat arbobi. U Amerika madaniyatida katta o‘rin egallagan, “Xarlem Renessansi” harakatining paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lgan ijodkorlardan biridir. L.Hyuz adabiyotda ko‘proq she’rlari bilan tanilgan. Ammo, uning ijodini o‘rgansak ijtimoiy-siyosiy mavzularda yozilgan hikoyalari ham talaygina. L.Hyuz she’rlari va asarlari Amerikadagi qora tanli ishchilar hayotini kurash, quvonch va musiqaga to‘la hayotlarini tasvirlagan. Bu haqida u shunday yozadi: “Mening

maqsadim Amerikadagi qora tanlilarning va barcha insoniyatning ahvolini qalamga olish, dunyoga tanitish edi” [13;418]. L.Hyuz hikoyalarida oq va qora tanlilar o’rtasidagi kulguli va fojiali munosabatlarni ochib bergan. Umuman olganda ular irqiy munosabatlarga nisbatan umumiy pessimizm bilan yondashgani sabab ajralib turadi. Bunga yorqin misollarni uning, “Qora” hikoyasida ko’rishimiz mumkin. Hikoyaning bosh qahramoni Melton ismli ayol. Uni mahalliy aholi Negritanka yoki qo’pol muomala qilmoqchi bo’lganda “Qora Mondini” deb chaqirishar edi. U Styudevantlar oilasida xizmatkorlik qilar edi. Bu oila Mondini qora tanlilardan bo’lgani uchun mensishmas edi. Bu uyda uning qo’li kasov, sochi supurgi edi. Qora Chenkinslar oilasining to’ng’ich farzandi edi u. Bu oilada 8 farzand bor edi. Uning ota-onasi qarib qolgan bolalarga qarash, ularni iqtisodiy ta’minlash, g’amxo’rlik qilish Qoraning zimmasida edi. Qora tabiatan juda soddaligi bois bir yigitni va’dalariga ishonib aldanib qoladi. Farzandli bo’ladi. Farzand ko’rganidan keyib ham hamma qiyinchilikka chidab, Styudevantlar oilasida ishlashda davom etadi. Ammo bu oila uning farzandini uyiga olib kelishiga qarshilik qiladi. Qoraning farzandi ko’k yo’tal bo’lib vafot etadi. Charxi falak Qoraning boshiga juda ko’p ko’rgilikarni soladi. U o’tmishni unutib taqdirga tan berib yashashda davom etadi. Hikoya shunday yakunlanadi. Hikoyada muallif o’sha davrda afroamerikada qora tanlilar va oq tanlilar o’rtasidagi ziddiyatlarni ochib bergan. Faqat oq tanlilargina yaxshi yashashi kerak degan fikrlar ilgari surilgan. Qora tanlilar bu zug’umga chidashga majbur edi, ularning xohish-istaklari, orzulari bilan hech kimning ishi yo’q edi. Hikoyada odamlarni irqqa ajratish qattiq tanqid ostiga olingan.

“Guliston” jurnalida M.Lermontovning ko’plab tarjima qilingan asarlarini uchratishimiz mumkin. Jurnalda shoir asarlari Usmon Nosir, Amin Umariy, Hamid Olimjon kabi tarjima ustalari tomonidan o’zbek tiliga o’girilgan. M.Lermontov shoir, nosir va rassom sifatida rus madaniyati tarixida faxriy o’rinlardan birini egallaydi. Ayniqsa, uning she’rlarida rus xalqining erksevarlik, erkinlik g’oyalari mujassam. Adabiyotshunos olim V.Belinskiy Lermontov she’rlaridan olgan taassurotini quyidagicha tasvirlaydi: “Hech qayerda hayotdan

Pushkincha zavqlanish yo‘q, lekin hamma yerda qalbni qoraytiradigan, yurakni muzlatadigan savollar bor. Darhaqiqat, Lermontov – umuman boshqa davr shoiri va uning she‘riyati jamiyatimizning tarixiy taraqqiyot zanjiridagi yangi bo‘g‘inidir” [14] degan edi. “Guliston” jurnalining 1936-yil 3-sonida M.Lermontovning Amin Umariy tarjimasidagi “Yelkan” she‘ri berilgan. She‘r quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Ko‘rinadi oq yolg‘iz yelkan

Zangor dengiz tumani aro!..

Nelar izlar u yiroq eldan,

Nelar qoldi yurtida tanho?..

Ushbu she‘r shoir hali 17 yoshga to‘lmasidan yozilgan. Bu asarda hayot chorrahasida qolgan yosh shoirning ruhiy iztiroblari to‘liq aks ettirilgan. Shoir hayotni timsol qilish uchun hayotning past-balandligini ifodalovchi an’anaviy dengiz tasviridan foydalangan, yelkan esa insonning o‘zi, uning ruhiy timsoli. Lermontov she‘riyatida doimo “inson taqdiri va huquqlari haqidagi savollar” mavjud. Hayotning ma’nosi, mavjud bo‘lishdir, garchi u hali unga noma’lum bo‘lsa ham. Shuning uchun dengiz bo‘ylab maqsadsiz kezib yurgan yelkan kundalik hayotning shovqini orasidan panoh topadi va ertami – kechmi o‘zining mavjudligiga javob topadi.

Ulug‘ rus shoiri A.S.Pushkin o‘zbek madaniy-adabiy hayotining tarkibiy qismiga aylanib ketgan bo‘lib, adib asarlari bir necha avlod tarjimonlar tomonidan qayta-qayta tarjima qilinib kelinmoqda. Usmon Nosir tarjimasidagi “Bog‘chasaroy fontani” dostoni, Jamol Kamol tarjimasidagi “Motsart va Saleri” dramatik dostoni, Oybek tarjimasidagi “Yevgeniy Onegin” she‘riy romani hamon o‘zbek kitobxoni tomonidan sevib o‘qib kelinmoqda. “Guliston” jurnalining 1936-yildagi sonida Usmon Nosir tarjimasidagi A.S.Pushkinning “Bog‘chasaroy fontani” dostoni berilgan. Doston syujeti mazmun-mohiyati bilan Sharqdan olingan. Aslida, bu asar V.M.Jirmunskiy e’tiroficha J.Bayronning “Korsar” poemasi ta’sirida yozilgan. Ushbu dostonda muallif o‘sha davrda bo‘layotgan voqealarni tilga oladi. Dostonning bosh qahramoni Garoydan saroydagi hamma

qo‘rqadi. Hattoki uning bir qovoq solishi butun saroy ahlini qo‘rqitadi. Garoy uchun hayotning qizig‘i qolmagandek, u endi oldingidek davlatlarni egallashni xohlamaydi, shuhrat zafarlardan zerikkan. Faqat chilim chekib vaqt o‘tkazardi. Bu saroyda bir fontan bor. Faqatgina shu fontangina saroy ahliga xursandchilik bag‘ishlaydi, kayfiyat beradi. Ushbu dostonni yozishdan avval Pushkin shu nomdagi dostonni yozishga asos bo‘lgan “Bog‘chasaroy fontani” she‘rida yana ham yorqinroq namoyon bo‘lgan:

Ishq, fontani, o o‘lmas fontan.

Senga ikki qizil gul sovg‘am!

Shildirashing yoqimli chunon,

Shoirona ko‘z yoshlaring ham.

She‘rning dastlabki satrlaridayoq sharq nafasi sezila boshlaydi. Fontandan otilib turgan suvni shoir oddiy emas shoirona ko‘z yoshlarga qiyos etadi. She‘rdagi tashbehlar sharqona nafosat bilan jilolanadi. Tasvir etilayotgan voqealar tadrijiy rivojlanib, sharq poetikasiga xos tadrij usuli she‘rda to‘liq aks etadi.

Abdulla Oripov Pushkinning “Tanlangan asarlari” so‘zboshisida quyidagi fikrlarni aytib o‘tgan: “Pushkin she‘riyati har jihatdan – shaklan, ruhan va ma‘nan sharq she‘riyatiga yaqin. Uning ayrim to‘rtliklari teranligi, ma‘nosining chuqurligi, falsafiyligi bilan bizning ruboiylarni eslatib turadi. Uning she‘riyati sharq ruhi bilan chuqur sug‘orilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hassos shoirimiz Usmon Nosir ona tilimizga o‘g‘irgan “Bog‘chasaroy fontani” dostoni mazmun-mohiyati bilan sharqdan olingan”.

O‘tgan asrning 30-yillari O‘zbekistonda “qatag‘on yillari” deb nomlanadi. Bu davr O‘zbekiston tarixining asorati va og‘rig‘i hamon seziladigan mavzularidan. Ziyoli va ma‘rifatparvarlar bilan birga, ularga shunchaki yaqin bo‘lgan kishilarning ham jismonan va ma‘nan mahv etilishi, ocharchilik va qahatchilik vositasida amalga oshirilgan qatag‘onlar millatning butun tinkamadorini quritgan. Shunday bo‘lishiga qaramasdan O‘zbekistonda adabiy hayoti rivojlanishda davom etdi. O‘zbek ziyolilari tomonidan ko‘plab she‘riy, nasriy

asarlar yozildi, davriy matbuot nashrlari tashkil topdi. Quvonarlisi, qardosh va jahon adabiyotining noyob durdona asarlari o'zbek tiliga tarjima qilindi. Tarjima san'atining yanada rivojlanishida Usmon Nosir, G'afur G'ulom, Cho'lpon, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda kabi ijodkorlarning xizmati tahsinga sazovor.

Jahon adabiyoti va qardosh xalqlarning durdona asarlari "Guliston" jurnalining "Jahonnoma", "Adabiyot" ruknlari ostida nashr etib borildi. Yuqorida nomi keltirilgan va tahlilga tortilgan asarlar fikrimizning yaqqol tasdig'idir. Bir so'z bilan aytganda ushbu jurnal XX asrning 30-yillari adabiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini ko'rsatuvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pardayev Q.U. Milliy uyg'onish davri manbalarida adabiy va publitsistik muammolar talqini ("Al-Isloh jurnali materiallari asosida"). – Toshkent, 2008.
2. Ziyoy Said. O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870-1927). – Samarqand: O'zbekiston nashriyoti, 1927.
3. Longston Hyuz. Qora. G'.G'ulom tarjimasi // Guliston, 1935. – № 2. – B.30-31.
4. Lermontov. Yelkan. Amin Umariy tarjimasi // Guliston, 1936. – № 5. – B.32.
5. A.S.Pushkin. Bog'chasaroy fantani. Usmon Nosir tarjimasi // Guliston, 1936. – № 10. – B.18.
6. M.Gorkiy. Bolalar. Karim Ahmadiy tarjimasi // Guliston, 1938. – № 4. – B.22-23.
7. Muallifsiz. Davron tarjimasi. // Guliston, 1935. – № 4. – B.2.
8. Baban Elkiyev. Suluvning so'zi. Uyg'un tarjimasi // Guliston, 1935. – № 10. – B.14.
9. M.J. Lermontov. Iblis. Usmon Nosir tarjimasi // Guliston, 1936. – № 1. – B.27-28.
10. Taras Shevchenko. Kavkaz. Maqsud Shayxzoda tarjimasi // Guliston, 1936. – № 3. – B.5.

11. Demyan Bedni. Qor uchqunlari. Mirtemir tarjimasi // Guliston, 1936. – № 5. – B.39.
12. M.J. Lermontov. Bulutlar. Hamid Olimjon tarjimasi // Guliston, 1936. – № 7. – B.22.
13. Arnold Rampersad. Langston Hyuzning hayoti // 1988. – B.418.
14. http://az.lib.ru/b/belinskij_w_g/text_0780.shtml
15. Quvvatova D. Pushkin she'riyatida sharq tasviri: "Sharq-u G'arb adabiyotida gumanizm: Navoiy va Pushkin" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Тошкент, 2024. – B.244.